



**XALQARO MIQYOSDA NIKOH TUZISH VA BEKOR
BO'LISHNING HUQUQIY ASOSLARI, SHUNINGDEK, CHET ELDA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARI ISHTIROKIDA
TUZILGAN NIKOHNI TAN OLIH MASALALARI**

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

xusannomozov1422@gmail.com.

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti "Jinoyat
huquqi va fuqarolik protsessi" kafedrası o'qituvchisi*

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xalqaro miqyosdada xorijiy davlatlar fuqarolari bo'lgan shaxslar ishtirok etadigan munosabatlar, ya'ni masalan, ularning o'zaro nikoh tuzishlari yoki umumiy fuqarolikka ega bo'lmagan er-xotinning aliment to'lash to'g'risida bitim tuzishi horijiy element ishtirokidagi munosabatlar deb ataladi. O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikox tuzishlari sonining sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi. Mazkur holatda chet el element ishtirokidagi xilma-xil munosabatlar, ya'ni nikoh tuzishda, nikohning tugatilishida, nikohni haqiqiy emas deb topishda, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarda, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarda bir qancha farqli jihatlar namoyon bo'lmoqda

Xalqaro xususiy huquq nikohni qayd etish va bekor qilishda davlatlararo qonunlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishni talab qiladi, chunki har bir davlatning o'zining fuqarolik holati to'g'risidagi qonunlari mavjud. Bu masalalar, ayniqsa, turli mamlakatlar o'rtasida nikohning qonuniyligi yoki bekor qilinishi



haqida qarorlar qabul qilganda yuzaga keladi”¹. Shuningdek, Xalqaro xususiy huquqda nikoh tuzish va bekor bo'lishning huquqiy asoslari muayyan kollizion normalar bilan tartibga solinadi. Turli davlat fuqarolari ishtirokida tuziladigan nikohlarning tan olinishi davlatlarning ichki qonunlari va xalqaro shartnomalarda belgilanadi. Yuqoridagilarga asos qilib, Oila kodeksining 235-moddasida “O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O'zbekiston respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar agar shu kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo'lmasa O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi”.²

Nikoh tuzish sohasiga oid qonunlar kollizion normalarni tartibga solish to'g'risidagi 1902-yilgi Gaaga konvensiyasi davlatlar o'rtasidagi nikoh oid munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi xalqlaro hujjat hisoblanadi. Mazkur konvensiyada davlatlararo nikohga oid qoidalar jamlangan bo'lib, nikohning haqiqiyligi bilan bog'liq tamoyillar o'z aksini topgan. Shaxslarning nikoh tuzishga layoqatligini belgilashda ayrim davlatlarda *lex personalis*, ya'ni shaxsning shaxsiy qonunida belgilangan normalarni qo'llaydi. Biroq turli huquq tizimiga mansub davlatlarda shaxsiy qonunning qo'llanishi farqli bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasida nikoh yoshi ayollar va erkaklar uchun 18 yosh etib belgilangan. Singapurda esa nikoh yoshi 21 yosh etib ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida nikohdan o'tayotgan Singapur fuqarosi 18 yoshida nikohdan o'tish huquqiga ega, biroq uning nikohi Singapurda tan olinmaydi. Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarda nikoh bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda yashash joyi (*lex domicilii*) qonuni qo'llaniladi. Italiya, Ispaniya va Belgiya kabi davlatlarda esa shaxsning huquqiy maqomi va shaxsiy holatiga bog'liq masalalar fuqaroligi bo'yicha qonuni (*lex patriae*)

¹ Smith, J. (2020). International Private Law: Marriage and Divorce. Oxford University Press

² <http://lex.uz/docs/-104720> O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi



qo'llashni nazarda tutadi. Shuningdek, nikoh biilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda sudlov mamlakati qonuni (*lex fori*) ham qo'llaniladi. Shuningdek, davlatlarning ichki qonunchiligida nikoh yoshlari ham farqli bo'lishi mumkin. Xitoyda nikoh yoshi 22 yosh, Fransiya 21 yosh, Afrikadagi ko'pgina davlatlarda 13 yosh va arab davlatlarida esa nikoh yoshi belgilanmagan. O'zbekiston Respublikasida nikoh yoshi ikki jins vakillari uchun ham 18 yosh etib belgilangan. Sababi, shaxsning jismoniy, ma'naviy-ruhiy va fiziologik jihatdan oilaga qurishga tayyor bo'lishi va axloq jihatdan xulosa qilinib, shunday belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, konsullik nikohi O'zbekiston fuqarolari o'rtasida chet elda O'zbekistonning konsullik vakolatxonalarida rasmiylashtirilgan nikoh hisoblanadi, bunda taraflar nikohga kirish uchun kerakli hujjatlarni taqdim etib, konsullik idorasining tasdiqlovchi qarori bilan nikohni qonuniy ravishda tuzishlari mumkin. Konsullik muassalarida qayd etilgan nikoh O'zbekiston Respublikasida tan olinib, ro'yxatga olinadi va shaxsning nikohga layoqatligini belgilaydi. *Konsullik muassasasi* (lot. Consulo, so'zidan olingan bo'lib, "muhokama qilmoq", "chora ko'rmoq", "ko'mak, yordam bermoq degan ma'nolarni anglatadi") – mamlakat tashqi aloqalari organlari tizimiga kiruvchi, konsullik muassasasi joylashgan mamlakatning kelishuv asosida belgilangan hududida u tomonidan vakillik qiladigan hamda muassasa joylashgan mamlakatda vakillik qilayotgan mamlakat, uning fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini amalga oshiradigan tashkilotdir³. Konsullik muassalar xorijdagii O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik manfaatlarini himoya qiladi va yuridiksiyaviy harakatlarini amalga oshiradi. Elchixonalarining konsullik muassalarida asosiy farqi shundan iboratki, ular siyosiy xarakterdagi diplomatik munosabatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. 1962 - yili qabul qilingan Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasida

³ Сандровский К.К. Право внешних сношений. –Киев: Вища школа, 1986. – С. 281.



davlatlar o'rtasida konsullik munosabatlarini o'rnatish o'zaro kelishuvlar tuzish orqali amalga oshirilishi belgilangan. Xalqaro miqyosda nikohga oid huquqiy masalalar ko'pincha xalqaro tashkilotlar va konvensiyalar tomonidan tartibga solinadi. Masalan, Gaaga Konvensiyalari, 1962-yilda qabul qilingan BMTning "Nikoh tuzishga rozilik, nikoh yoshi va nikohni qayd etish to'g'risidagi Konvensiya"si va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasining 12-moddasi ushbu yo'nalishda muhim asoslar hisoblanadi. Ushbu hujjatlar nikohning qonuniyligini ta'minlash, erkin rozilikka asoslangan nikohlarni himoya qilish va davlatlararo huquqiy uyg'unlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yili 17 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunining 1 - moddasiga ko'ra, Konsullik faoliyati O'zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslari konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonunchiligida, O'zbekiston Respublikasi va konsullik muassasasi joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda berilgan barcha huquqlardan to'liq hajmda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun O'zbekiston Respublikasi tomonidan choralar ko'rish maqsadida amalga oshiriladi. Konsullik nikohlarini qayd etishda amal qilinishi lozim bo'lgan shartlar belgilab qo'yilgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan boshqa davlatning fuqarosi o'rtasidagi tuzilayotgan nikoh O'zbekiston Respublikasining Konsullik muassasida emas, balki nikoh qayd etilayotgan davlatning vakolatli organlarida qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasida konsullik nikohlari quyidagi ikki shart asosida amalga oshiriladi: o'zarolik asosida, ya'ni konsulni tayinlagan mamlakatda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining nikohlarini konsullik muassasada yoki elchixonada qayd etishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, shaxslarning ikkalasi ham konsulni tayinlagan davlat fuqarolari bo'lsalar.



Konsullik muassalaridagi nikohlarni qayd etish konsul tayinlagan mamlakat qonuni bilan belgilanadi. Ammo bu konsullik muassasi joylashgan mamlakatning qonunchiligiga rioya etmaslikni anglatmaydi. Masalan, ko'pgina arab mamlakatlarida ko'p xotinlikka ruxsat etilgan. Bunday davlatlarning konsuli O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida zid ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan konsullik muassasida oldin nikohi qayd etilgan shaxsning u ajrashmaguncha yangidan nikohni qayd eta olmaydi. Shuningdek, ko'p xotinlikka qonunchiligi yo'l qo'yilgan mamlakat fuqarolari O'zbekiston Respublikasiga kelganida ularning nikohi tan olinadi, biroq yuridik ahamiyat kasb etmaydi. O'zbekiston Respublikasi konsuli nikoh bilan bog'liq vazifalarini Oila qonunchiligi, Konsullik ustavi va bir qator qonunlarda belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi. Xalqaro xususiy huquqda "oqsoq nikoh" tushunchasi mavjud bo'lib, bir davlatda qayd etilgan nikohning boshqa davlatda tan olinmasligini bildiradi.

Xalqaro miqyosda barchamiz uchun qiziqarli bo'lgan oila va nikoh masalalarida so'nggi statistika ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida 2024-yil yanvar-iyun oylarida 97.4 mingta nikoh qayd etilgan. Nikohlarning 50.1 mingtasi shaharlarda, 47.3 mingtasi qishloqlarda tuzilgan. Yarim yil mobaynida tuzilgan nikohlarning eng ko'pi Samarqand viloyatida, eng ko'p ajrimlar Toshkent shahrida qayd etilgan. Eng ko'p nikoh qayd etilgan hududlar quyidagicha: Samarqandda 10671 ta, Qashqadaryoda 9801 ta, Farg'onada 9758 ta, Surxondaryoda 8121 ta, Toshkent shahrida 9000 tani tashkil qilgan. Nikohlar sonining eng kam ulushi Sirdaryoda 2410 ta, Navoiyda 2661 ta, Jizzaxda 3518 ta, Buxoroda 5818 ta va Qoraqalpog'istonda 6389 tani tashkil qilgan. Nikohlanuvchi ayollarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi 20 yoshgacha 17.1%, 20-30 yoshgacha 67.6%, 31-40 yoshgacha 11.1%, 41 yosh va undan kattalar 4.2% ni tashkil qilgan. Nikohdan ajralishlar 2024-yilning birinchi yarim yilligida erkaklar o'rtacha 37.1 yosh, ayollar 32.2 yoshida nikohdan ajrashgan. 35 yoshgacha bo'lgan ayollar ajrimlardan eng katta ulushni tashkil



qilgan. Shu yarim yil ichida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni 10479 (46.6%) bo'lgan. Bir nafar farzand bilan ajralishlar soni 6616 (29.4%), ikki va undan ortiq farzandlar bilan ajralishlar soni 5372 taga (24%) ha yetgan.

Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarida ya'ni O'zbekiston fuqarolari va boshqa davlat fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohdan ajratish asoslari Oilada kodeksida belgilab tartibda amalga oshiriladi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston hududida tashqarida yashab turgan xotini(eri) bilan tuzilgan nikohni, uning fuqaroligidan qa'tiy nazar O'zbekiston Respublikasi sudida bekor qilishi mumkin. Masalan, Italiya fuqarosiga turmushga chiqqan O'zbekiston fuqarosi Italiya sudida ajrashishga yo'l qo'yilmasa, O'zbekiston sudlarida ajralishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet davlatining vakolatli muassalarida nikohdan ajralishlari mumkin. Chet davlatining vakolatli muassasasida qayd etilgan nikohdan ajratish to'g'risidagi qaror O'zbekistonda ham haqiqiy deb e'tirof etiladi va fuqaro O'zbekiston Respublikasida yangi nikoh tuzishga haqli bo'ladi. Biroq, nikohdan ajratish to'g'risidagi qarorni tan olish va uning oqibatlarini tan olish o'rtasida sezilarli farq mavjud. Ya'ni aksariyat mamlakatlarning ichki qonunchiligida bir tarafning aybi bilan nikoh ajratish to'g'risidagi qaror chiqarilsa, aybdor tarafga muayyan muddat davomida yangi nikoh tuzishga ruxsat etilmaydi. Chet el mamlakati fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish va tugatish masalalari nikohni qayd etishdan biroz farqli bo'lganligi sababli, kollizon normani to'g'ri shakllantirish orqali muammo to'g'ri hal qilinishi mumkin.

Xalqaro xususiy huquqda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohlarida ular bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Biroq O'zbekiston Respublikasida bir jinsli shaxslar o'rtasidagi nikohlar va ko'p xotinlik tan olinmaydi va yuridik ahamiyat kasb etmaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarda qonunchilik muvofiq tuzilgan nikoh ommaviy tartibga zid bo'lmasa tan olinadi. Xalqaro-xususiy huquqda nikoh bilan bog'liq masalalar turli davlatlarning qonunlari va ularning uyg'unlashuvi muammolarini qamrab oladi. Asosiy xalqaro hujjatlar, jumladan, 1962-yilgi BMT Konvensiyasi nikohning erkin rozilikka asoslangan bo'lishini talab qiladi va uning davlat organlari tomonidan qayd etilishini majburiy qiladi. Gaaga Konvensiyalari esa nikoh tuzish va bekor qilishda qo'llaniladigan qonunlar hamda davlatlararo qarorlarni tan olish bo'yicha normalarni belgilaydi. Shu tariqa, xalqaro xususiy huquq nikohning qonuniyligini ta'minlash uchun turli yondashuvlar va huquqiy mexanizmlardan foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (yangi tahrirdagi);
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (yangi tahrirdagi);
3. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b;
4. Сандровский К.К. Право внешних сношений. –Киев: Вища школа, 1986. – С. 281.
5. Smith, J. (2020). International Private Law: Marriage and Divorce. Oxford University Press
6. Internet saytlar:
www.lex.uz
www.legislation.uz

